


## Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida Jizzax viloyatida 2609 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,1 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2138 ta (17,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14130 tani tashkil etgan.


**Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'zida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning**  
**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 18,6 % savdoda, 15,8 % sanoatda, 15,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 9,5 % qurilishda, 6,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa va 28,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>14923</b>	<b>14130</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Jizzax shahri	4574	4321	30,7	30,6
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	439	438	2,9	3,1
Baxmal	880	812	5,9	5,7
G'allaorol	1130	1124	7,6	8,0
Sharof Rashidov	2408	2343	16,1	16,6
Do'stlik	617	574	4,1	4,1
Zomin	1200	1150	8,0	8,1
Zarbdor	694	667	4,7	4,7
Zafarobod	427	363	2,9	2,6
Mirzacho'l	536	464	3,6	3,3
Paxtakor	623	565	4,2	4,0
Forish	1068	990	7,2	7,0
Yangiobod	327	319	2,1	2,2

2018 yil yanvar - noyabr holatiga 2609 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 35,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahrida (697 ta), Sharof Rashidov (402 ta), Zomin (213 ta) va Forish (209 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (63 ta), Mirzacho'l (74 ta) hamda Zafarobod (86 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (557 ta), sanoatda (507 ta), savdoda (400 ta) va qurilishda (277 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (19 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (25 ta) hamda tashish va saqlashda (67 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 dekabr xolatiga			2017 yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Savdo	341	119,2	24,2	232	68,0	12,0	400	172,4	15,3
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	305	148,1	21,6	546	179,0	28,3	557	102,0	21,3
Sanoat	218	119,8	15,5	376	172,5	19,5	507	134,8	19,4
Qurilish	139	104,5	9,9	153	110,1	7,9	277	181,0	10,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	109	99,1	7,7	156	143,1	8,1	149	95,5	5,7
Tashish va saqlash	85	207,3	6,0	56	65,9	2,9	67	119,6	2,6
Axborot va aloqa	29	170,6	2,1	22	75,9	1,1	19	86,4	0,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	15	83,3	1,1	31	206,7	1,6	25	80,6	1,0
Boshqa turlari	170	122,3	11,9	359	211,2	18,6	608	169,4	23,4


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 11128 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3834 ta, oilaviy korxonalar – 499 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6461 ta va boshqalar 334 tani tashkil etadi.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**


2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 119 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga yoki 48,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 91 tasi qo'shma korxonalar, 28 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.



### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahar 58 ta (48,7 %), Zomin 10 ta (8,4 %) G'allaorol va Forish tumanlari 9 ta (7,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan

korxonalar Mirzacho'l 1 ta (0,8 %), Yangiobod 2 ta (1,7 %), Arnasoy, Baxmal va Zarbdor va Zafarobod 3 ta (2,5 %) tumanlar hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 69 ta (58,0 %), savdo 18 ta (15,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 17 ta (14,3 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 5 ta (4,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (0,8 %), axborot va aloqada 2 ta (1,7 %), tashish va saqlashda 3 ta (2,5 %) va qurilishda 4 ta (3,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)**



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 43 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 11 ta, Turkiya Respublikasi – 10 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 8 ta, Turkmaniston Respublikasi – 3 ta, Islom Respublikasi Afg'oniston - 2 ta, Isroil Respublikasi - 2 ta, Birlashgan Arab Amirligi - 2 ta, Eron Islom Respublikasi - 1 ta, Amerika Qo'shma Shtatlarida — 1 ta, Koreya Xalq-Demokratik Respublikasi - 1 ta, Saudiya Arabistoni Qirolligi – 1 ta, Pokiston Islom Respublikasi – 1 ta, Qozog'iston Respublikasi -1 ta, Tojikiston Respublikasi -1 ta va Ukraina Respublikasidan -1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar - noyabr holatiga) birlikda**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 16 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11 ta, savdoda 10 ta, qurilishda 2 ta va boshqa faoliyat turlarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
<b>Sanoat</b>	8	400,0	72,7	16	200,0	37,2
<b>Qishloq va o'rmon xo'jaligi</b>	3		27,3	11	366,7	25,6
<b>Qurilish</b>				2		4,7
<b>Savdo</b>				10		23,3
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>				1		2,3
<b>Axborot va aloqa</b>				1		2,3
<b>Boshqa turlari</b>				2		4,6

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

2018 yil 1 dekabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10087 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 19,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3629 tasi (32,7 %) Jizzax


shahriga, 2025 tasi (18,3 %) Sharof Rashidov, 863 tasi (7,8 %) G'allaorol hamda 836 tasi (7,5 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11087 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2618 tasi (23,6 %) – savdoda, 2210 tasi (19,9 %) - sanoatda, 2101 tasi (19,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1336 tasi (12,1 %) - qurilishda, 946 tasi (8,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 510 tasi (4,6 %) - tashish va saqlashda, 149 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 130 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

ko'rsatishda, shuningdek 1087 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 2176 dan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 31,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida (602 ta), Sharof Rashidov (342 ta), Forish (185 ta) va G'allaorol tumanlarida (174 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (47 ta), Mirzacho'l (59 ta) hamda Zafarobod (63 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (554 ta), sanoatda (505 ta), savdoda (400 ta) va qurilishda (277 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (19 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (25 ta) hamda tashish va saqlashda (67 ta) tashkil etilgan.

### **Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**




### **Oilaviy korxonalar soni**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 534 tani tashkil etib, ulardan 499 tasi yoki 93,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 44,3 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.




**Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 41,1 % yoki 205 tasi sanoat, 25,1 % yoki 125 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,8 % yoki 84 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,0 % yoki 45 tasi savdo, 1,0 % yoki 5 tasi qurilish, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 6,0 % yoki 30 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71-230-83-65 (66)